


Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi
(2020-yil yanvar)

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm, o'zgarish sur'ati, % da



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar oyida viloyat sanoat korxonalarini tomonidan 694,2 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 104,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 94,0 % ni tashkil etdi.


Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 2,7%, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 35,0 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 2,9 % ga, suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish esa - 17,9 % ga o'sishi kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,04 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,006 % ni tashkil etdi. 2020-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 652,6 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 94,002 % ni tashkil etdi. O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushini avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 37,8 %, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 24,5 %, oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish 15,9 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish ulushi - 37,8 %



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 24,5 %




Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish ulushi -15,9 %



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoati

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




● Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Joriy yilning yanvar oyida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 36,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,2 %)ni tashkil etdi. Shu bilan birga sanoat ishlab chiqarishning fizik indeksi 135,0 % ni tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.

Mazkur tarmoqda eng yuqori ulushni, suv yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash 62,9 %, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish 36,4 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi, %



● Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish



Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati)da yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (natura shaklda)

| Sanoat mahsulotlari | 2020-yil yanvar | 2019-yil yanvar | Farqi +/- |
|--|-----------------|-----------------|-----------|
| Gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln kVts: | 17,6 | 4,6 | 13,0 |
| Issiqlik energiyasi – ming Gkal: | 13,0 | 13,1 | - 0,1 |
| Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz) –dona: | 3989,0 | 2950,0 | 1039 |
| Maxsus engil avtomobillar – dona: | 311,0 | 650,0 | - 339 |
| Aroq – ming litr: | 55,2 | 108,0 | - 52,8 |
| Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari –ming litr: | 0,4 | 2,8 | -2,4 |
| Tarkibida 15 % dan ko‘p spirt bo‘lgan boshqa tabiiy uzum vinolari – ming litr: | 14,0 | 100,0 | - 86 |
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni – tonna: | 7257,4 | 6554,2 | 703,2 |
| Tozalangan o‘simlik yog‘i –tonna: | 0 | 2185,0 | - 2185 |
| Xo‘jalik sovuni – tonna: | 635,5 | 1013,0 | - 377,5 |
| Paxta tolasi – tonna: | 6663,4 | 10166,0 | - 3502,6 |
| Paxta chigiti – tonna: | 10504,7 | 16115,0 | - 5610,3 |

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, issiqlik energiyasi 0,1 ming gkalga, maxsus engil avtomobillari 339 donaga, aroq 52,8 ming litrga, tarkibida 15 % dan ko'p spirt bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari 86,0 ming litrga, tozalangan o'simlik yog'i 2185 tonnaga, xo'jalik sovuni 377,5 tonnaga, paxta tolasi 3502,6 tonnaga, paxta chigiti 5610,3 tonnagakamaygan.

Gidroelekt stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi, yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz), yumshoq bug'doy va spelta uni, va boshqa mahsulotlar sezilarli darajada oshgan.

**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**



2019-yil yanvar oyida o'rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 6,5 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2020-yil yanvar oyida bu ko'rsatkich 9,6 foizga oshgan bo'lsa, o'rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 41,9 foizdan, 40,2 foizga, quyi texnologiyali ishlab chiqarish 46,4 foizdan 41,2 foizga kamaygan.

Shuningdek, viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 0,5 mlrd.so'mlik (2019-yil yanvar oyida 0,5 mlrd.so'm), o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqda 291,0 mlrd.so'mlik (248,1 mlrd.so'm), o'rta-quyi texnologiyali tarmoqda 66,8 mlrd.so'mlik (40,1 mlrd.so'm), quyi texnologiyali tarmoqda 285,7 mlrd.so'mlik (286,6 mlrd.so'm) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.



Xorazm viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

| Shahar va tumanlar nomi | 2020-yil yanvar-fevral <i>mlrd.so‘m</i> | Fizik hajm indeksi, % da |
|--------------------------|---|-----------------------------|
| Xorazm viloyati | 694,2 | 104,3 |
| Urganch shahri | 142,1 | 102,7 |
| Xiva shahri | 9,6 | 102,9 |
| <i>shundan tumanlar,</i> | | |
| Bog‘ot tumani | 21,8 | 79,2 |
| Gurlan tumani | 36,2 | 103,7 |
| Qo‘shko‘pir tumani | 30,2 | 101,5 |
| Urganch tumani | 25,8 | 116,7 |
| Hazorasp tumani | 299,1 | 117,9 |
| Xonqa tumani | 28,4 | 74,1 |
| Xiva tumani | 11,1 | 107,7 |
| Shovot tumani | 39,9 | 248,0 |
| Yangiariq tumani | 32,5 | 102,0 |
| Yangibozor tumani | 17,6 | 60,2 |

Yuqoridagi jadval tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, Hazorasp tumani, Urganch shahri, Urganch tumani, Gurlan tumani, Xiva tumani, Shovot tumanlari sanoati yuqori darajada rivojlangan hududlar hisoblanadi. Ushbu shahar va tumanlarda asosan avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, kiyim ishlab chiqarish, oziq-ovqat



mahsulotlari ishlab chiqarish va qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyatlari yuqori darajada rivojlangan.



Xorazm viloyatida ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi, % da

Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida, 2019-yil yanvar oyiga nisbatan, Shovot tumanida 248,0 %, Hazorasp tumanida 117,9 %, Urganch tumanida 116,7 %, Xiva tumanida 107,7 %, Gurlan tumanida 103,7 % va Xiva shahrida 102,9 % sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada o‘sishi kuzatildi.

SANOAT ISHLAB CHIQAIRISH FIZIK HAJM INDEKSI
2019-YIL YANVAR OYIGA NISBATAN, % DA



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulushga ega Hazorasp tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 43,1 %), Urganch shahri (20,5 %), Shovot (5,8 %), Gurlan (5,2 %), hamda Qo‘shko‘pir (4,3 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Xiva shahri (1,4 %), Xiva tumani (1,6 %), Yangibozor tumani (2,5 %) to‘g‘ri kelmoqda.


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini
ishlab chiqarish. (mlrd.so'm)**

| Iqtisodiy faoliyat turlari: | 2020-yil yanvar | 2019-yil yanvar |
|---|--------------------|--------------------|
| Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi | 694,2 | 617,6 |
| Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | 0,04 | 0,04 |
| <i>ulardan:</i> | | |
| Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat | 0,04 | 0,04 |
| Qayta ishlash faoliyati | 652,6 | 583,0 |
| <i>undan:</i> | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish | 90,0 | 90,5 |
| Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish | 20,2 | 8,8 |
| To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish | 166,8 | 181,2 |
| Kiyim ishlab chiqarish | 2,4 | 1,8 |
| Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish | 1,0 | 0,6 |
| Yog'och va po'kak buyumlar, poxol va to'qish uchun materiallari, ishlab chiqarish | 0,9 | 0,5 |
| Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish | 1,3 | 1,1 |
| Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish | 0,1 | 0,1 |
| Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish | 0,1 | 0,03 |
| Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish | 2,8 | 1,6 |
| Asosiy farmasevtika | 0,5 | 0,5 |

| Iqtisodiy faoliyat turlari: | 2020-yil yanvar | 2019-yil yanvar |
|---|-----------------|-----------------|
| Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish | 13,5 | 6,9 |
| Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish | 31,3 | 20,8 |
| Metallurgiya sanoati | 6,0 | 1,8 |
| Mashina va uskunalardan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish | 14,1 | 9,4 |
| Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish | 0,04 | 0,03 |
| Elektr uskunalari ishlab chiqarish | 3,0 | 2,4 |
| Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish | 23,1 | 21,8 |
| Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish | 262,2 | 222,4 |
| Mebel ishlab chiqarish | 2,9 | 2,0 |
| Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish | 8,6 | 7,8 |
| Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish | 1,8 | 1,2 |
| Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash | 36,3 | 30,4 |
| Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish | 5,3 | 4,2 |

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subyektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida viloyatda 421,3 mlrd.so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2019-yilning yanvar oyiga nisbatan o'sish sur'ati 123,7 foizni tashkil etdi.



Xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 100,2 mlrd.so'mni va 321,1 mlrd.so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, o'tgan 2019-yilning yanvar oyiga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 108,0 foiz va 130,6 foini tashkil qildi. Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 67,7 foizni (2019 yil yanvar oyida 52,5 foiz) tashkil qildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda to'qimachilik mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarish 10,0 mlrd.so'mni, avtomobil ishlab chiqarish 178,1 mlrd.so'mni va 133,0 mlrd.so'mlik boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

**Xorazm viloyati bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020-yilning yanvar oyida)

| Shahar va tumanlar nomi | Mlrd.so'm | Jamiga nisbatan ulushi, % da | 2019-yil yanvar oyiga nisbatan, % da |
|--------------------------|--------------|---------------------------------|--|
| Xorazm viloyati | 421,3 | 100 | 123,7 |
| Urganch shahri | 52,7 | 12,5 | 88,6 |
| Xiva shahri | 9,4 | 2,2 | 102,8 |
| <i>shundan tumanlar,</i> | | | |
| Bog'ot tumani | 14,8 | 3,5 | 127,2 |
| Gurlan tumani | 12,2 | 2,9 | 115,6 |
| Qo'shko'pir tumani | 5,0 | 1,2 | 113,1 |
| Urganch tumani | 17,4 | 4,1 | 138,0 |
| Hazorasp tumani | 256,6 | 60,9 | 136,8 |
| Xonqa tumani | 21,2 | 5,0 | 123,1 |
| Xiva tumani | 10,3 | 2,4 | 107,3 |
| Shovot tumani | 10,0 | 2,4 | 118,8 |
| Yangiariq tumani | 5,4 | 1,3 | 102,7 |
| Yangibozor tumani | 6,3 | 1,3 | 140,1 |

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Hazorasp tumaniga to'g'ri kelib, 60,9 % ni, shuningdek, Urganch shahri 12,5 % ni, Xonqa tumani 5,0 % ni, Urganch tumani 4,1 % ni hamda Bog'ot tumani 3,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (123,7 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Yangibozor tumani

(140,1 %), Urganch tumani (138,0 %), Hazorasp tumani (136,8 %), Bog‘ot tumani (127,2 %) qayd etildi.



**Shahar va tumanlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari
ishlabchiqarishhajmi, tarkibi va o‘shish sur‘ati
(2020-yilning yanvar oyida)**

| Shahar va tumanlar nomi | Mlrd.so‘m | Jamiga nisbatan ulushi, % da | 2019-yil yanvar oyga nisbatan, % da |
|--------------------------|--------------|---------------------------------|---|
| Xorazm viloyati | 100,2 | 100 | 108,0 |
| Urganch shahri | 30,2 | 30,1 | 90,0 |
| Xiva shahri | 3,5 | 3,5 | 108,5 |
| <i>shundan tumanlar,</i> | | | |
| Bog‘ot tumani | 9,4 | 9,4 | 124,2 |
| Gurlan tumani | 6,1 | 6,1 | 112,4 |
| Qo‘shko‘pir tumani | 3,0 | 3,0 | 106,2 |
| Urganch tumani | 11,4 | 11,4 | 139,4 |
| Hazorasp tumani | 4,8 | 4,8 | 95,8 |
| Xonqa tumani | 13,8 | 13,8 | 117,5 |
| Xiva tumani | 3,7 | 3,7 | 97,7 |
| Shovot tumani | 7,4 | 7,4 | 121,8 |
| Yangiariq tumani | 2,8 | 2,8 | 103,4 |
| Yangibozor tumani | 4,0 | 4,0 | 138,6 |

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Urganch shahriga to‘g‘ri kelib, 30,1 %, shuningdek, Xonqa tumani 13,8 % ni, Urganch tumani 11,4 % ni, Bog‘ot tumani 9,4 % ni hamda Shovot tumani 7,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘shish sur‘atida eng yuqori ko‘rsatkich Urganch tumani (139,4 %), Bog‘ot tumani (124,2 %), Shovot tumani (121,8 %), Yangibozor tumani (138,6 %) va Xonqa tumani (117,5 %) ni tashkil qildi.

**Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlari
ishlabchiqarishhajmi, tarkibi va o‘shish sur‘ati
(2020-yilning yanvar oyida)**

| Shahar va tumanlar nomi | Mlrd.so‘m | Jamiga nisbatan ulushi, % da | 2019-yil yanvar oyiga nisbatan, % da |
|--------------------------|--------------|---------------------------------|--|
| Xorazm viloyati | 321,1 | 100 | 130,6 |
| Urganch shahri | 22,5 | 7,0 | 92,5 |
| Xiva shahri | 5,9 | 1,8 | 99,6 |
| <i>shundan tumanlar,</i> | | | |
| Bog‘ot tumani | 5,4 | 1,7 | 132,9 |
| Gurlan tumani | 6,1 | 1,9 | 119,0 |
| Qo‘shko‘pir tumani | 2,1 | 0,6 | 124,9 |
| Urganch tumani | 5,9 | 1,8 | 135,3 |
| Hazorasp tumani | 251,8 | 78,4 | 137,9 |
| Xonqa tumani | 7,3 | 2,3 | 135,2 |
| Xiva tumani | 6,6 | 2,1 | 113,5 |
| Shovot tumani | 2,6 | 0,8 | 111,3 |
| Yangiariq tumani | 2,6 | 0,8 | 102,0 |
| Yangibozor tumani | 2,3 | 0,7 | 142,8 |

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Hazorasp tumaniga to‘g‘ri kelib, 78,4 %, shuningdek, Urganch shahri 7,0 % ni, Xonqa tumani 2,3 % ni, Gurlan tumani 1,9 % ni hamda Urganch tumani 1,8 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘shish sur‘atida viloyat o‘shish sur‘ati (130,6 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Yangibozor tumani (142,8 %), Bog‘ot tumani (132,9 %), Urganch tumani (135,3 %), Xonqa tumani (135,2 %), Hazorasp tumani (137,9 %) va Qo‘shko‘pir tumani (124,9 %) ni tashkil qildi.



**Shahar va tumanlar bo‘yicha iste‘mol mahsulotlari
ishlab chiqarishning o‘shish sur‘ati
(2019-yil yanvar oyiga nisbatan, % da)**

Iste‘mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Yangibozor tumani (2019-yil yanvar oyiga nisbatan 140,1 %), Urganch tumani (138,0 %), Hazorasp tumani (136,8 %), Bog‘ot tumani (127,2 %), Xonqa tumani (123,1 %), Shovot tumani (118,8 %), Gurlan tumani (115,6 %)ga sezilarli darajada oshdi.

Qolgan Urganch shahrida o‘shish sur‘ati 100 % dan kamaygani kuzatildi.





**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**
(2020-yil yanvar oyida, ming so'm)


| Shahar va tumanlar nomi | Sanoat mahsulotlari | 2019-yil yanvar oyiga nisbatan, % da | Iste'mol mahsulotlari | 2019-yil yanvar oyiga nisbatan, % da |
|--------------------------|---------------------|--------------------------------------|-----------------------|--------------------------------------|
| Xorazm viloyati | 375,0 | 102,6 | 227,6 | 125,5 |
| Urganch shahri | 995,2 | 101,3 | 369,0 | 86,6 |
| Xiva shahri | 105,2 | 101,3 | 102,7 | 92,5 |
| <i>shundan tumanlar,</i> | | | | |
| Bog'ot tumani | 134,0 | 77,8 | 91,4 | 112,3 |
| Gurlan tumani | 246,7 | 102,1 | 83,6 | 121,3 |
| Qo'shko'pir tumani | 177,4 | 99,7 | 29,7 | 110,7 |
| Urganch tumani | 131,8 | 114,5 | 88,7 | 143,8 |
| Hazorasp tumani | 1217,2 | 115,9 | 1044,2 | 135,9 |
| Xonqa tumani | 154,5 | 72,9 | 114,9 | 130,7 |
| Xiva tumani | 77,1 | 105,9 | 71,7 | 116,3 |
| Shovot tumani | 237,9 | 243,6 | 59,6 | 126,4 |
| Yangiariq tumani | 283,3 | 100,4 | 47,5 | 100,5 |
| Yangibozor tumani | 204,2 | 59,2 | 72,7 | 129,8 |

Yuqoridagi tahliliy jadvalga asosan joriy yilning yanvar oyida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 375,0 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,6 foizga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2019-yil yanvar oyida Hazorasp tumani 1031,0 ming so'mdan 2020-yil yanvar oyida 1217,2 ming so'mga, Urganch shahrida 867,2 ming so'mdan 995,2 ming

soʻmga, Urganch tumani 60,2 ming soʻmdan 131,8 ming soʻmga, Xiva tumanida 41,7 ming soʻmdan 77,1 ming soʻmga oshganligi kuzatildi. Sanoati rivojlangan Hazorasp tumanida (1217,2 ming soʻm), Urganch shahrida (995,2 ming soʻm)ga oʻrtacha viloyat darajasi koʻrsatkichidan (375,0 ming soʻm) yuqoriligini koʻrsatmoqda.

Aholi jon boshiga isteʼmol mahsulotlari ishlab chiqarilishi aholi jon boshiga isteʼmol tovarlari ishlab chiqarish viloyat boʻyicha 227,6 ming soʻmni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʼati 125,5 foizga oʻsishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni koʻrsatmoqdaki, 2019-yil yanvar oyida Hazorasp tumani 793,2 ming soʻmdan 2020 yil yanvar oyida 1044,2 ming soʻmga, Xiva shahri 35,8 ming soʻmdan 102,7 ming soʻmga, Urganch tumani 47,2 ming soʻmdan 88,7 ming soʻmga Gurlan tumani 39,0 ming soʻmdan 83,6 ming soʻmga oʻsgani kuzatildi.

**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**
(2020-yil yanvar oyida, % da)



Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Xiva shahri (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100 %), Yangibozor tumani (100 %), Xiva tumani (100,0 %), Urganch tumani (73,3 %), Xonqa tumani (66,6 %), Bogʻot tumani (68,5 %) ni tashkil qildi.

Viloyatda yanvar oyida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 235,7 mlrd.soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 33,9 % ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida

sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Hazorasp tumani (5,0 %), Qo‘shko‘pir tumani (25,3 %), Yangiariq tumani (29,5 %), sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 87,0 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 12,5 % ni tashkil etdi.



Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2020-yil 1-mart holatiga ko‘ra)

| Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda | | Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, birlikda |
|---|-------------|---|
| 3 | Shovot | 136 |
| 19 | Yangibozor | 137 |
| 7 | Bog‘ot | 146 |
| 3 | Yangiariq | 168 |
| 5 | Gurlan | 189 |
| 6 | Qo‘shko‘pir | 208 |
| 6 | Hazorasp | 254 |
| 8 | Xiva t | 282 |
| 13 | Xonqa | 282 |
| 10 | Xiva sh | 304 |
| 9 | Urganch t | 371 |
| 28 | Urganch sh | 691 |

Viloyatda 3,1 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 691 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 21,8 %) Urganch shahriga, Urganch tumaniga 374 tasi (11,8 %), Xiva shahriga 304 tasi (9,6 %), Xonqa tumaniga 282 tasi (8,9 %), Xiva tumaniga 282 tasi (8,9 %) to'g'ri kelmoqda.

2020-yil yanvar oyida viloyatda 117 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi. Ulardan eng yuqori bo'lgan Urganch shahrida 28 ta, Yangibozor tumanida 19 ta, Xonqa tumanida 13 ta, Xiva shahrida 10 ta va 9 ta Urganch tumanida tashkil etilgan.

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi
"Sanoat statistikasi" bo'limi
Aloqa telefoni (62) 224-64-99